

**SHARQ VA G'ARB DUNYOSINING YIRIK ADABIY YODGORLIKLER
(DOSTONLAR) IDAGI MUSHTARAKLIK JIHATLAR**

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
O'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-kurs 521-guruh talabalari
Toshtemirova Lola
Choriyeva Laziza*

Anotatsiya: Ushbu maqolada mil.avv.VIII asrlarda yashab ijod qilgan yunon adibi Gomerning "Odiseya", mil.avv. IV asrlarda yaratilgan xind xalqining "Ramayana" dostonlari hamda milodiy X-XI asrlarda yaratilgan o'zbek xalqining "Alpomish", "Kuntug 'mish" kabi asarlaridagi syujet (voqealar rivoji), kompozitsiya va asar qahramonlarning xuxusiyatlaridagi mushtaraklik jihatlari qiyoslanib, yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: "Ramayana", "Alpomish", "Odiseya", xalq og'izaki ijodi, syujet, obraz, ramz, mushtaraklik jihatlar.....

Avvalo, doston tushunchasiga e'tibor qaratsak, doston nima? Doston- xalq og'izaki ijodning liro-epik turga mansub yirik janr hisoblanadi, u muayyan voqealari tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamma qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirot etadi, personajlar esa ko'p bo'ladi. Voqealar sertarmoq, rang-barang. Dostonlarda jamiyat, xalq va qahramon yaxlit, butun holda qahramon bilan tashqi dushmanlar o'rtasidagi kurash, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi to'qnashuvlar tasvirlanadi. Sevgi-muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik- sadoqat tuyg'ulari baralla kuylanadi. Folklorshunos olim M.Jo'rayev aytganidek "Har qanday folklor asari namunasi bu milliy qadriyatlar namunasidir. Xalq og'zaki ijodining eng kichik janri maqoldan tortib to'epik hajmga ega bo'lgan dostongacha barcha, barchasida milliy qadriyatlar o'ziga xos tarzda aks etganligini ko'ramiz."

Ushbu dostonlar sirasida hind xalqining ilk asarlaridan biri bo'lgan miloddan
www.tadqiqotlar.uz 14-to'plam 2-son dekabr 2024

avvalgi 4 asrda yaratilgan "Ramayana" dostoni o‘z o‘rniga ega. Dostonda Ramaning qahramonliklari, uning zulm vaadolatsizliklarga qarshi kurashi bayon etiladi. Bunday dostonlar orasida o‘zbek xalqining "Alpomish" dostoni muhim ahamiyat kasb etadi. Endi yuqoridagi ikkala dostonlarni qiyoslab tahlil qilsak. Ramayana dostonidan voqealar rivoji Kushala podshosi Dasharatxaning farzandsizligi bilan boshlanadi va u farzand so‘rab ma‘budlar oldiga boradi. Ma‘budlar uning yaxshi ekanligi hamda xalqni odamxo‘rlar podshosi Ravandan qutqara oladigan bir yigitni dunyoga kelishini o‘zlar ham xohlab unga 4ta o‘g‘il farzand beradi. "Alpomish" dostonining voqealarini ham Chambil elining shohlari bo‘lgan aka-uka Boybo‘ri va Boysarilarning befarzandlik jarayoni bilan boshlandi, aka-ukalar farzand tilab Shohimardon pir ravzasiga borib, 40 kun tunashadi. Keyin ularga Alloh farzand beradi: Boybo‘riga bir qiz, bir o‘gil, Boysariga bir qiz qiz Ushbu holat ya‘ni shohlarning befarzandlik holati ko‘plab dostonlarda uchraydi, bu syujet g‘arb hamda sharq eposlariga birdek xosdir. Kashala shohi Dasharatxaning to‘ng‘ich o‘g‘li Ram har sohada yetuk va barkamol bo‘lib ulg‘ayadi, Alpomish ham ilmda, ham ot choptirishda, qurol-yarog‘ ishlatalishda tengsiz mahoratli bo‘lib o‘sadi. Alpomish yetti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan 14 botmonli yoyni ko‘tarib, Asqar tog‘ining uchini uchirib yuboradi va o’shanda unga pahlavonlarni boshi Rustam edi, oxiri Alpomish bo‘lsin deb "Alpomish" ismini qo‘yadilar. "Ramayana" dostonida esa Ram Sitaga erishish uchun shu paytgacha hech kim ko‘tarolmagan yoyni ko‘tarib hammani lol qoldiradi, va u yoy qo‘lida sinib-sinib ketadi. O‘z yoriga yetishish yo‘lida shartlar bajarishni biz ikkita dostonda ham uchratishimiz mumkin. Alpomish ham Barchinoya erishish uchun dushmanlari bilan bir qatorda shartlar bajarib g’olib keladi. Ikkala doston qahramonlari ham shohning farzandlari edi, ular bitta qizni deb o‘z jonlarini xatarga qo‘ymasalar ham bo‘lar edi. Lekin or-nomus, shijoat va sadoqat o‘z yori uchun jondan kechib bo‘lsa ham uni qutqarish sharq yigitlariga xos fazilatdir. Biz bunday holatni faqatgina shu dostonlarda emas, barcha dostonlarda ko‘rishimiz mumkin . Sharq adabiyotining "Kuntug‘mish", "Ravshan", "Goprōg‘li" dostonlarida ham, Antik davr adabiyotining "Illiada", "Odiseya" eposlarida ham ushbu jarayonlar mavjud. Ikkala doston qahramoni Alpomish bilan Rama kun-u tun yo‘l yurib, qancha dovonlar, tog‘-u toshlar oshib o‘z

yorlarini qutqarishga shoshiladilar.Dushmanlarining "taslim bo'l yoki o'lasan" degan tahdidlariga qaramasdan kurashib dushmanlarini yer tishlatib suyuklilarini dushmandan halok etadilar.

"Kuntug'mish" dostoni bilan solishtirar ekanmiz ikkila dostonda ham mushtarak jihatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. "Kuntug'mish"da Kuntug'mish va Zulkumor vaziyat taqozosi bilan cho'lga surgun qilinadi. Ular tossa qiyinchiliklar ko'rib Qora tog' etagida har xil yovvoyi mevalar yeb kun kechirishadi. "Ramayana" da taxtga boshqa o'g'il o'tirhanligi sababli Ram Sita bilan o'rmonzorlarga ketishadi. U yerda ov qilib yashashda davom etishadi. Bu ikki dostondagi qahramonlar podshohning o'g'li bo'lishiga qaramay har xil vaziyatlar tufayli o'z mamlakatlaridan ancha olisda yashashganligi asarni bir -biriga bog'lab turadi. Ayol obrazining opqochib ketilishi ikki dostonda ham mavjud. "Kuntug'mish"da Zulkumorni Azbarxo'ja olib qochib ketsa, "Ramayana"da yovuz Ravana Sitani olib qochib ketadi. Ikkala asarda ham o'z yorlarini qutqarish uchun jang qilishadi. Ota o'z o'g'illarini tanimaslik epizodi har ikkala dostonda kuzatiladi. "Kuntug'mish" Kuntug'mish podshoh bo'lib, 2 ta o'g'ri bolani o'limga hukm etganda o'z bolalarini tanimaydi. Zulkumor ularni Kuntug'mishga tanitadi. "Ramayana"da Ram Sitani badarg'a qiladi. U ikki o'g'il farzandli bo'lib bolalarini voyaga yetkazadi. O'g'illariga Ram va Sitaning boshidan kechirgan voqealarni doston qilib aytib beradi va podshohga shu dostonni aytib beringlar deb jo'natadi. Ram avvalaiga bu ikki bolalarni tanimaydi, keyin ularning hikoyasini eshitib o'zining farzandlari ekaniga amin bo'ladi.

"Odisseya" dostonidagi bedarak ketgan qahramonni vafodor yori uzoq kutishi va uning boshqalar tomonidan ikkinchi marta turmush qurishga majburlanishi, bosh qahramon uyga qaytganda sodiq xiz-matkori uning tanasidagi belgidan tanib olishi, qahramonning boshqa qiyofada hech kim o'q uza olmaydigan kamonidan o'q otishi singari voqealarda o'zbek xalqining "Alpomish" dostoni bilan yaqinlikni ku-zatish mumkin. "Odisseya" va "Alpomish" asarlaridagi quyidagi obrazlarni bir birga qiyoslashimiz

mumkin:

Gadoy qiyofasidagi Odissey – Qultoy qiyofasidagi Alpomish,
Penelopa –Barchinoy,

Telemax – Yodgor,
kuyovlar – Ultontoz kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Jo'rayev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. -T.: «Barkamol fayz media», 2017,136 bet.
2. ALPOMISH. O'zbek xalq dostoni. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, Toshkent – 2018.
3. Kuntug'mish Ravshan. Dostonlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2011.
4. Gomer. Odisseya. Doston. Rus tilidan Qodir Muhammedov tarjimasi. Toshkent-2024.
5. Ramayana. Qadimgi hind epasi. Muhammad Ali tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1978.a